ALISHER SA’DULLAYEV QAYSI KITOBLARNI MUTOLAA QILISHNI TAVSIYA QILADI?

Hayotni anglash, tafakkur qila olish uchun o‘nta kitob kifoya. Biroq o‘sha o‘ntani topish uchun esa yuzlab, minglab kitoblarni o‘qib chiqishga to‘g‘ri keladi. Dunyoda shu paytgacha chop etilgan asarlarni o‘qib tugatishga bir insonning umri yetmasligi aniq, shu boisdan ham imkon qadar zarurati yuqori bo‘lgan sara kitoblarga vaqt ajratish to‘g‘ri qaror nazarimizda.

Ushbu tavsiya qilayotganlarimiz qat’iy ro‘yxat emas, keling, bu ketma-ketlikni nisbiy tushunamiz. Biroq shunga aminmizki, yoshlarimiz aql qudug‘ining to‘lishi, dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasining ijobiy tomonga o‘zgarishida bu asarlarning qiymati bo‘lak.

Yoshlar, fikrlashdan to‘xtab qolmaslik, tafakkur qilish baxtidan mosuvo bo‘lmaslik, muvaffaqiyat qozonish uchun ham kitob o‘qing, mutolaa qiling! Zero, o‘z so‘zi, mustaqil pozitsiyasiga ega haqiqiy shaxsga aylanishingiz uchun bu g‘oyat muhimdir! Demak, Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa’dullaev yoshlar o’qishi uchun 10ta kitob tavsiya qiladi.

1. **«Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur**

Turkiy elning buyuk farzandi, shoh va shoir – Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk istig‘fori va iqrorlari o‘rin olgan asar. Haqiqatning ko‘ziga tik qaray olgan jo‘mard Boburning shaxsiyatini, o‘sha davr va zamon ruhini bu asar orqali taniy olamiz. «Boburnoma» adabiyot, tarix, falsafa, geografiya, psixologiya, harb san’ati, umuman, deyarli barcha sohani qamrab olgan eng unikal, sara kitoblardan biri hisoblanadi. Bobur shoir, kuchli sarkarda va shu bilan birga jahon tarixida katta iz qoldirgan siyosatchi. «Boburnoma»dek biografik asarlar esa bobomiz hayoti, tajribasini o‘rganish uchun juda qimmatli manbadir.

2. **«Asrga tatigulik kun», Chingiz Aytmatov**

Asarda manqurt bo‘lmaslik, odam hamisha o‘z shaxsiy qarashi va qadriyatlariga ega bo‘lishi lozimligiga urg‘u berilgan. Dunyodagi hech bir g‘oya insonni qurbon qilishga, insonning insonligidan judo qilishga arzimaydi, degan ulkan g‘oya ilgari surilgan. Inson o‘zligini bilishi, tanishi qanchalar muhimligi va o‘zlikdan ayrilish naqadar dahshatli oqibatlarga olib kelishini bilish, tushunish uchun ham mazkur asarni o‘qishingizni istardim.

3. **«Kecha va Kunduz», Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon**

O‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarish, davr zulmiga qurbon bo‘lgan yoshlarning achchiq qismatidan saboq olib, doim oldinga intilishga da’vat qiladigan bu roman hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Romanda ayniqsa, menga juda yoqadigan jihat u millat qizlarini ta’lim olishga, ilm-ma’rifatli bo‘lishiga undaydi.

4. **«Otamdan qolgan dalalar», Tog‘ay Murod**

Asar o‘zbek xalqining buyuk bardoshiga qo‘yilgan haykaldir. Romanda har bir o‘zbek yoshi o‘qishi kerak bo‘lgan o‘tmishimiz, mohiyatimiz, g‘oyamiz, ildizimiz bor. Bu asarni, albatta, o‘qing va mustaqillik naqadar oliy ne’mat ekanligini yana bir bor chuqur anglang.

5. **«Martin Iden», Jek London**

«Martin Iden»da yosh iste’dod egasining qismati, yaltiragan har narsa oltin bo‘lavermasligi, jumladan, muhabbatga ham yengil qarab bo‘lmasligi haqida g‘oyalar bor. Jahon adabiyoti durdonalari ichida ushbu kitobga mehrim bo‘lakcha. Muvaffaqiyatga erishish uchun sinovlarda toblanish, maqsaddan og‘ishmay manzilga yeta olish borasida mazkur badiiy avtobiografik asar orqali bilish mumkin.

6. **«Urush va Tinchlik», Lev Tolstoy**

Romanda Borodino jangiga sabab bo‘lgan voqealar va unda ishtirok etgan shaxslar, arboblar tilga olinadi. Zamon va makon chegaralaridan o‘tib kelgan bu asar insoniyat tinchlik, muhabbat va saodat uchun yaratilgani haqida ulug‘ yozuvchi va faylasuf Tolstoyning zamon va makon chegaralaridan o‘tib kelayotgan hayqirig‘idir.

7. **«Usta va Margarita», Mixail Bulgakov**

Romanda asli kievlik bo‘lgan yozuvchining o‘z davridagi bolsheviklar siyosatiga o‘zining haqqoniy qarashlari ifodalangan. O‘qish, tushunish, anglash va xulosa chiqarish birmuncha murakkab bo‘lgan ushbu asar hayotning asl mohiyatini, insonning o‘zligini anglashga bo‘lgan chorlovdir.

8. **«Puankare», Abduqayum Yo‘ldoshev**

Ushbu asar ilm yo‘lini tanlagan yoki oldiga katta maqsad qo‘ygan yoshlar uchun hayotning ikir-chikirlariga o‘ralashib, o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘ymaslik, harakatlarini kechiktirmaslik, maqsadga bugun intilib, bugun erishish lozimligi haqidagi eng ta’sirli kitoblardan biridir.

9. **«Baxt yetkazish» (Milliard dollarlik internet do‘kon tarixi), Toni Shey**

Asar inson o‘z faoliyatida yangiliklarni sinab ko‘rishdan qo‘rqmaslik, asl sevgan kasbini izlab topishda qat’iyatli bo‘lish, qadriyatlarni to‘g‘ri qo‘yish, har kim muvaffaqiyatli va boshqalarga baxt ulasha oladigan inson bo‘la olishi mumkinligi haqidagi hayotiy kitobdir. Yoshlarimiz bu asardan ham katta taassurotlar olishi aniq.

10. **«Kichkina shahzoda», Antuan de Sent Ekzyuperi**

Qissa – insonning o‘zi va hayot haqidagi haqiqatlarini ulg‘aytirishi, qarashlarini o‘zgartirishi, yangi g‘oyalar va ixtirolarga ilhom bag‘ishlashi bilan har qaysi davr shaxs uchun qiymatli va muhimdir. Ayrimlar ushbu asarni faqat bolalar, yoshlar uchun deb hisoblaydi. Yo‘q u barcha yoshdagilar, tili, dini, millatidan qat’i nazar butun insoniyat uchun yozilgan va ular o‘qishi kerak bo‘lgan asardir.